

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

YETTISUV VILOYATIDA FAOLIYAT OLIB BORGAN IJTIMOY HIMOYA TASHKILOTLARI

Buriyev Zavqiddin

Buxoro davlat universiteti, doktorant (PhD).

e-mail: boriyevzavqiddin@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-9297-0862>

Annotatsiya.

Maqolada Verniy bolalar uyining faoliyati tahlil qilinib, yetim bolalarni hunarmandchilikka (etikdo'zlik, muqovasozlik, tikuvchilik) o'rgatish orqali ijtimoiy moslashtirish hamda muassasalarda ichki xo'jalik hisobini yuritish jihatlariga e'tibor qaratilgan. Rossiya imperiyasining ijtimoiy yordam sohasidagi siyosatida, asosan, ko'chirib keltirilgan aholi, harbiylar va ma'muriy boshqaruv xodimlarining manfaatlari ko'proq hisobga olingani, mahalliy aholining ehtiyojlariga esa yetarlicha e'tibor qaratilmagani ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Yettisuv viloyati, xayriya muassasalari, ta'lim, ustaxonalar, Verniy, gospitallar, ko'z kasalxonasi.

ОРГАНИЗАЦИИ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ, ДЕЙСТВУЮЩИЕ В ОБЛАСТИ ЖЕТЫСУ

Буриев Завкиддин

Бухарский государственный университет, докторант (PhD).

Аннотация.

В статье анализируется деятельность Верненского детского приюта, особое внимание уделяется социальной адаптации детей-сирот посредством обучения ремёслам (сапожному, переплётному и швейному делу), а также вопросам ведения внутреннего хозяйственного учёта в учреждениях. Показано, что политика Российской империи в сфере социальной помощи преимущественно учитывала интересы переселенческого населения, военнослужащих и работников административного управления, тогда как потребностям местного населения уделялось недостаточное внимание.

Ключевые слова: Семиреченская область, благотворительные учреждения, образование, мастерские, Верный, госпитали, глазная больница.

SOCIAL PROTECTION ORGANIZATIONS OPERATING IN THE JETISU REGION

Buriyev Zavqiddin

Bukhara State University, Doctoral Student (PhD).

Abstract.

The article analyzes the activities of the Verny orphanage, with particular attention to the social adaptation of orphaned children through vocational training in crafts such as shoemaking, bookbinding, and sewing, as well as to the organization of internal financial and economic accounting within such institutions. The study shows that the Russian Empire's social assistance policy primarily took into account the interests of settler populations, military personnel, and administrative officials, while insufficient attention was paid to the needs of the local population.

Keywords: Semirechye Region, charitable institutions, education, workshops, Verny, hospitals, eye hospital.

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yettisuv viloyatida ijtimoiy yordam va xayriya faoliyatining turli shakllari shakllandi. Rossiya imperiyasining Turkistondagi ma'muriy boshqaruv tizimi doirasida tashkil etilgan mazkur muassasalar tarkibiga bolalar uylari, nogironlar va qariyalar uylari, o'quvchilarga yordam ko'rsatish jamiyatlari, bepul tibbiy muassasalar hamda Qizil Xoch tashkilotining mahalliy boshqarmasi kabi tuzilmalar kirgan. Ularning faoliyati aholining ayrim ijtimoiy guruhlariga boshpana, ta'lim, tibbiy xizmat, moddiy va boshqa ko'rinishdagi yordam ko'rsatishga qaratilgan.

Shu nuqtayi nazardan, maqolaning asosiy maqsadi — XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yettisuv viloyatida faoliyat olib borgan ijtimoiy himoya va xayriya tashkilotlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari, xizmat ko'rsatgan ijtimoiy guruhlari, moliyaviy manbalari hamda amaliy faoliyatini tarixiy manbalar asosida tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yettisuv viloyatida ijtimoiy himoya tashkilotlari faoliyatini o'rganishda, avvalo, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida viloyat ma'muriyati tomonidan tayyorlangan statistik va ma'lumotnoma xarakteridagi nashrlar muhim manba sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada foydalanilgan “Обзор Семиреченской области” turkumidagi nashrlar viloyatdagi ijtimoiy muassasalar, ularning faoliyati, mablag'lari, qaramog'idagi shaxslar soni va sarf-xarajatlari haqida aniq ma'lumotlar beradi. Jumladan, 1885-yilgi sharhda Aleksandrovsk nogironlar va qariyalar uyining dastlabki faoliyati va moliyaviy holati, 1887-yilgi nashrda Rossiya Qizil Xoch Jamiyatining Yettisuv Mahalliy Boshqarmasi faoliyati, 1897-yilgi

sharhda bir qator ijtimoiy va tibbiy muassasalarning holati, 1900-yilgi sharhda esa Verniy bolalar uyining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etilgan.

Maqolada foydalanilgan manbalarni mazmuniga ko'ra uch asosiy guruhga ajratish mumkin: birinchisi — ijtimoiy muassasalarning tashkil etilishi va ustaviga oid ma'lumotlar; ikkinchisi — ularning moliyaviy faoliyati, tushum va xarajatlari; uchinchi — muassasalarda ko'rsatilgan ijtimoiy, ta'limiy va tibbiy xizmatlarning statistik ko'rsatkichlari.

Tadqiqot metodologiyasida tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga tayanildi. Manbalarda qayd etilgan ma'lumotlarni o'zaro qiyoslash orqali turli yillardagi ijtimoiy muassasalar faoliyatidagi o'zgarishlar aniqlandi. Statistika-tahliliy metod yordamida muassasalardagi tarbiyalanuvchilar va qaramog'idagi shaxslar soni, moliyaviy tushumlar va xarajatlari hamda tibbiy xizmat ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy metod asosida bolalar uyi, nogironlar va qariyalar uyi, o'quvchilarga yordam jamiyati, ko'z kasalxonasi va Qizil Xoch boshqarmasining faoliyat yo'nalishlari o'zaro taqqoslandi.

MUHOKAMA

Yettisuv viloyatida tashkil etilgan xayriya muassasalari orasida ota-onasidan mahrum bo'lgan, qarindoshlaridan ajralib qolgan bolalar uchun tashkil etilgan mehribonlik uylari alohida o'rin tutadi. Masalan, viloyat markazida joylashgan **Verniy bolalar uyi** 1879-yil 28-oktabrda tashkil etilgan bo'lib, unda ikkala jinsdagi (o'g'il va qiz) bolalar tarbiyalangan. Ushbu bolalar uyi Yettisuv viloyatining yetim aholisi uchun yagona boshpana bo'lib xizmat qilgan. 1900-yilning 1-yanvariga kelib bolalar uyida 57 nafar bola yashagan bo'lib, ulardan 26 nafari o'g'il va 31 nafari qiz bolalar bo'lgan. 1900-yil davomida (yanvar–dekabr) yana 8 nafar o'g'il va 4 nafar qiz bola qabul qilingan bo'lsa, 1 nafar o'g'il va 2 nafar qiz bola esa bolalar uyini tark etgan. 1901-yilning 1-yanvariga kelib priyutda 33 nafar o'g'il va 33 nafar qiz bola istiqomat qilgan. Maktab yoshidagi barcha bolalar bolalar uyi maktabida ta'lim olgan, shu bilan bir qatorda ko'plab bolalar bo'sh vaqtlarida etikdo'zlik va muqovachilik ustaxonalarida taklif etilgan ustalar rahbarligida ta'lim oldilar. Ishchi bolalar orasidan etikdo'zlik ustaxonasidagi 7 nafar o'g'il bola mustaqil ravishda ishlay olgan, qolganlari esa ularga yordam berishlari mumkin bo'lgan. 1900-yil davomida o'g'il bolalar tomonidan 70 juft etik va 78 juft oyoq kiyim tikildi hamda turli xildagi 319 juft poyabzal ta'mirlangan. Muqovachilik ustaxonasida esa 120 ta kitob muqovalandi va tikildi, ularning bir qismi maktab uchun darsliklar, bir qismi esa bolalar uyi kutubxonasi uchun kitoblar edi, kichik bir qismi esa tashqaridan olingan buyurtma ishlar hisoblangan. Verniy bolalar uyida yashab, ta'lim olayotgan o'g'il bolalar muassasa xo'jaligi, bog' va poliz ishlari bilan ham shug'ullanganlar. Qiz bolalar esa o'zlariga mos bo'lgan tozalik, ozodalik ishlarida, navbat bilan bolalar uyidagi oshxona ishlarida qatnashgan, kir yuvgan, pollarni artgan va hunar sirlarini o'rganishga harakat qilishgan. Bolalar uyidagi 7 nafar qiz bola tikuvchilikning dastlabki asoslarini o'rganib, tikuv mashinalarining tuzilishi bilan tanishgan. Hatto ta'lim oluvchi bolalardan bir nafari mustaqil ishlay olgan, buyurtmalar bo'yicha o'lcham olish, oddiy bichish va pardozlash ishlarini bajargan, uch nafari mustaqil ravishda yordam bergan bo'lsa, qolganlari tikish ishlarida qatnashgan. 1900-yil davomida qiz bolalar tomonidan kiyimlar va ayollar liboslarini tikish orqali 233 rubl 56 tiyinlik ish bajarilgan. 1900-yilning oxirida duradgorlik ustaxonasi ham ochilib, unda 5 nafar o'g'il bola ta'lim olgan [5: 51-b.].

Yettisuv viloyatida ota-onasidan, qarindoshlaridan mahrum bo'lgan bolalar uylaridan tashqari, yoshi katta qariyalar va nogironlar uchun ham maxsus uylar tashkil etildi. Jumladan, **Katta-Olmaota stanitsasidagi Aleksandrovska nogironlar va qariyalar uyi** Imperator Aleksandr II ning fojiali o'limi xotirasiga bag'ishlab tashkil etilgan. Aleksandrovska nogironlar va qariyalar uyi Verniy shahrida, Katta Olmati stanitsasida joylashgan. Aleksandrovska nogironlar va qariyalar uyining ustavi 1883-yil 13-aprelda tasdiqlangan. 1884-yil 3-dekabrda o'z faoliyatini boshlagan ushbu muassasaning maqsadi — diniy e'tiqodidan qat'i nazar, Yettisuv kazak qo'shiniga mansub bo'lgan, qarilik, nogironlik (mayiblik), g'ariblik, boquvchisizlik sababli o'zini boqa olmaydigan va kuchdan qolgan har ikki jinsdagi (erkak va ayol) shaxslarga boshpana berish hamda parvarishlashdan iborat. Ustavga ko'ra, muassasada yoshi 17 dan kichik bo'lmagan 10 nafar muhtojni saqlash belgilangan. Qaramog'ga olinganlardan hech qanday haq olinmaydi; ular bepul joy (boshpana), kiyim-kechak va oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlanadi. Aleksandrovska nogironlar va qariyalar uyi 3 024 rubl 90 kopeyka miqdoridagi shaxsiy kapitalga hamda 3 150 rublga sotib olingan shaxsiy bino (uy)ga ega bo'lgan. Bundan tashqari, muassasa mablag'lari quyidagilardan shakllanadi: a) qo'shin (kazaklar) kapitali hisobidan har yili ajratiladigan 200 rubl miqdoridagi mablag'; b) har xil shaxslarning vaqtincha va doimiy a'zolik ehsonlari; c) ikonalar (muqaddas tasvirlar) qoshidagi xayriya qutilaridan yig'ilgan mablag'lar; d) qo'shin (kazaklar) tarkibidagi barcha stanitsalardan 17 yoshdan boshlab, har bir kishidan (jondan) yiliga 10 kopeykadan 20 kopeykagacha undiriladigan majburiy ijtimoiy yig'imga. 1884-yil 3-dekabrda 1886-yil 1-yanvargacha bo'lgan davrda muassasada 7 nafar muhtoj (4 erkak va 3 ayol) yashagan. Ularni ko'rsatilgan muddat davomida saqlash xarajatlari 853 rubl 55 kopeykani tashkil etdi. 1885-yilda qaramog'dagilardan 1 nafar erkak vafot etdi, 1 nafar ayol esa o'z xohishiga ko'ra muassasadan chiqib ketdi. Aleksandrovska nogironlar va qariyalar uyi Qo'shin Boshqarmasi tomonidan tayinlanadigan maxsus nazoratchi tomonidan boshqarilgan [2: 66-b.]. 1897-yilning 1-yanvaridagi holatga ko'ra, Aleksandrovska nogironlar va qariyalar uyini saqlash uchun pul mablag'lari 9 589 rubl 82 tiyin bo'lgan. Ushbu muassasada parvarish ostidagilar 1897-yil 1-yanvariga 7 nafar edi, shulardan 3 nafari erkak va 4 nafari ayol. Yil davomida 4 kishi kelib qo'shildi va 5 kishi chiqib ketdi; shu sababli 1898-yil 1-yanvariga 6 nafar qoldi, shulardan 3 nafari erkak va 3 nafari ayol [1: 59-b.]. 1900-yilda u yerda qaramog'ga olinganlar jami 1 nafar erkak va 3 nafar ayol bo'lgan. Ulardan 1900-yil davomida 1 nafar erkak va 2 nafar ayol vafot etgan hamda 1901-yilning 1-yanvariga kelib faqat 1 nafar ayol qoldi. Ushbu muassasa qaramog'iga olingan har bir kishining choy, shakar va non pishirish hamda ovqat tayyorlash uchun kerakli masalliq bilan oziq-ovqat ta'minoti uchun yiliga 40 rubl 72¾ tiyin sarflangan. Ularni saqlashning umumiy xarajatlari — ma'muriyat maoshi, xizmatchilar, isitish, yoritish, jihozlar, kiyim-kechak va boshqalar bilan birga — har bir kishi uchun yiliga 263 rubl 95 tiyinni tashkil etgan. Xayriya uyining o'z uyi, asalari uyalari bo'lgan asalarizori va 105 ta kitobdan iborat 39 nomdagi

nashrlarga ega kutubxonasi ham bo'lgan [5: 52-b.].

Yettisuv viloyatida ijtimoiy muassasalardan ta'lim olayotgan o'quvchilarga yordam berish jamiyatining faoliyati muhim o'rin tutadi. Ammo ushbu jamiyat faqatgina rus o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarga yordam berishga harakat qilgan bo'lib, mahalliy ta'lim muassasalari va ularning o'quvchilarini e'tiborga olmagan. **Verniy shahridagi rus o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan muhtojlarga yordam ko'rsatish jamiyati** 1879-yilda tashkil etilgan bo'lib, 1897-yilda uning tarkibida 22 nafar faxriy a'zo va 77 nafar haqiqiy a'zo bor edi. Jamiyat ixtiyorida 1897-yil 1-yanvariga 3 404 rubl 71 tiyin pul mablag'i bor edi. 1897-yil davomida kelib tushgan mablag'lar quyidagicha:

Manba	Summa
A'zolik to'lovlari	420 rubl 93 tiyin
Turli shaxslar tomonidan ehson	576 rubl 36 tiyin
Yig'im daftarlari orqali tushgan	142 rubl 10 tiyin
Boshqa tushumlar	93 rubl 61 tiyin
JAMI	4637 rubl 71 tiyin

Sarflangan xarajatlar quyidagicha bo'lgan: Verniy erkaklar gimnaziyasi o'quvchilarining o'qish to'lovi va nafaqasiga — 725 rubl 63 tiyin (shundan 300 rubl qarz tarzida); Ayollar gimnaziyasi o'quvchilarining o'qish to'lovi — 195 rubl; Shahar bilim yurti bo'yicha ham — 116 rubl; Ayollar bilim yurtlari bo'yicha — 33 rubl; Turli xarajatlar — 76 rubl 39 tiyin. **JAMI — 1 146 rubl 2 tiyin.** 1898-yil 1-yanvarida qolgan mablag'lar — 3 491 rubl 69 tiyinga teng bo'lgan [1: 59–60-b.].

Verniy shahridagi Imperator Mariya Aleksandrovnaning Ko'rlar Vasiyligi Jamiyati qoshidagi bepul ko'z kasalxonasi 1896-yil 9-aprelida ochilgan. Ushbu kasalxonaga 1897-yilda 1 128 nafar bemor qabul qilingan bo'lib, ular 11 347 marta tashrif buyurishgan. Verniy harbiy gospitalida Ko'rlar Vasiyligi Jamiyati hisobidan 65 nafar statsionar bemor davolangan [1: 61-b.]. Shifoxona faoliyatini 1899-yil bilan taqqoslaydigan bo'lsak, yil davomida shifoxonada ambulator tartibda 1 382 nafar ko'z kasalligiga chalingan bemor qabul qilindi, ular tomonidan jami 9 370 marta qatnov (tashrif) amalga oshirilgan. Statsionar (yotib davolanuvchi) bemorlar soni Jamiyat hisobida 46 nafar, Verniy harbiy gospitalida esa 19 nafarni tashkil etdi. Ushbu bemorlar tomonidan shifoxonada o'tkazilgan umumiy kunlar soni: harbiy gospitalda — 438 kun, ko'z shifoxonasida esa 345 kun bo'lgan. Verniy bepul ko'z shifoxonasining mustaqil faoliyatidan tashqari, 1899-yilda Jamiyat tomonidan Prjevalsk uyezdining Sazanovka qishlog'iga maxsus okulistik (ko'z shifokorlari) guruhi xizmat safariga yuborildi. Ushbu guruh tomonidan 409 nafar bemor qabul qilindi va jami 2 119 marta qatnov amalga oshirildi. Ko'zi ojizlar toifasidan 9 kishi davolanish imkoniyatidan foydalandi; ular shifoxonada jami 42 kun davomida yotib davolanishdi. Ushbu guruhni xizmat safariga yuborish uchun 430 rubl mablag' ajratilgan edi, amalda esa 306 rubl 91 kopeyka xarajat qilindi. Bu esa mo'ljallangan mablag'dan 123 rubl 9 kopeyka tejab qolganini ko'rsatadi [4: 74-b.].

Rossiya Qizil Xoch Jamiyatining Yettisuv Mahalliy Boshqarmasi. Boshqarma tasarrufida 1887-yilda 50 nafar a'zo mavjud bo'lgan. Bu 1886-yilga nisbatan 16 kishiga ko'p demakdir. 1887-yil 1-yanvarga kelib boshqarmaning ixtiyorida barcha xarajatlar va maxsus mablag'lar hisobidan 3 559 rubl 31 tiyin bo'lgan, 1888-yil 1-yanvarga kelib esa barcha xarajatlar va maxsus mablag'lar yig'indisi tushumlar bilan birga 37 031 rubl 77 tiyinni tashkil etdi. 1887-yilda jami bo'lib 21 883 rubl 71 tiyin kelib tushdi va 20 881 rubl 73 tiyin xarajat qilindi. Kirim asosan Qizil Xochning bosh va mahalliy boshqarmalari tomonidan Verniy (hozirgi Olmaota) shahridagi zilziladan jabr ko'rganlarga yordam berish uchun yuborilgan mablag'lardan iborat edi. Ushbu xayriya mablag'lari zilziladan keyingi dastlabki kunlarda shahar shifoxonasi ochilgunga qadar bog'lov punkti va ambulatoriya shifoxonasini saqlash uchun sarflangan. Bundan tashqari, boshqarma mahalliy dorixonalariga shifokorlar retsepti bo'yicha kambag'allarga bepul dori-darmon berilgani uchun pul to'ladi. Shuningdek, mahalliy lazaretda (harbiy shifoxonada) bemorlarni saqlash sharoitlarini yaxshilash uchun mablag'lar ajratildi [3: 61-b.].

Boshqarma faoliyati 1897-yilda kambag'al va bemorlarga har oylik va bir martalik nafaqalar berish orqali moddiy yordam ko'rsatishga, shuningdek, ularning oilalariga ko'maklashishga qaratildi. Boshqarmaning 1897-yil davomidagi xarajatlari quyidagicha bo'lgan [1: 61-b.]:

Xarajat	Summa
Nogiron quyi harbiy unvonlarga oylik nafaqalar	191 rubl
Bir martalik nafaqalar	42 rubl
Vafot etgan ofitser onasiga oylik nafaqa	48 rubl
Hamshiralalar maoshi	120 rubl
Hamshiralarga tayyorgarlik kursi ilmlarini o'rgatgan shifokorga maosh	200 rubl
Quyi harbiy unvonlarning yetim qolgan bolalarini saqlash uchun Verniy bolalar boshpanasiga,	250 rubl

Xarajat	Summa
Boshqa xarajatlar	849 rubl 97 tiyin
JAMI	1700 rubl 97 tiyin

Bu xarajat 1897-yil tushumlaridan amalga oshirildi — 1700 rubl 97 tiyin miqdorida bo'lgan. Bundan tashqari, Boshqarma tasarrufida 1898-yil 1-yanvariga quyidagi summalar mavjud edi:

Fond	Summa
1. Harbiy davr ehtiyojlari uchun zaxira kapitali	37 303 rubl 25 tiyin
2. Nogiron askarlarga yordam berish kapitali	1040 rubl 20 tiyin
3. Jamoat ofatlarida yordam uchun	2100 rubl
4. Issig'ota mineral suvlarini saqlash uchun	380 rubl 67 tiyin
5. Borliq (Barlik) mineral suvlarini saqlash uchun	151 rubl 6 tiyin
JAMI	40 975 rubl 18 tiyin

Bundan tashqari, Jamiyatning Bosh Boshqarmasida saqlanayotgan 7 652 rubl 43 tiyin mablag' bo'lib, Yettisuv Mahalliy Boshqarmasining barcha summolari 1898-yil 1-yanvariga 48 627 rubl 61 tiyin miqdoriga yetdi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari Yettisuv viloyatida ijtimoiy himoya tizimi bir necha yo'nalishlarda faoliyat olib borganini ko'rsatadi. Birinchi yo'nalish yetim va qarovsiz bolalarni himoya qilish hamda ularni ta'lim va hunarga jalb etish bilan bog'liq bo'lgan. Verniy bolalar uyi 1879-yil 28-oktabrda tashkil etilgan bo'lib, XX asr boshlariga kelib Yettisuv viloyatidagi yetim bolalar uchun muhim boshpana vazifasini bajargan. 1900-yil 1-yanvarida muassasada 57 nafar bola bo'lgan; yil davomida yangi tarbiyalanuvchilarning qabul qilinishi natijasida 1901-yil boshiga ularning soni 66 nafarga yetgan.

Bolalar uyining faoliyatida ta'lim bilan bir qatorda kasb-hunar o'rgatishga ham katta e'tibor berilgan. O'g'il bolalar etikdo'zlik va muqovachilik ustaxonalarida, keyinchalik esa duradgorlik ustaxonasida shug'ullangan. 1900-yil davomida etikdo'zlik ustaxonasida 70 juft etik va 78 juft oyoq kiyim tikilgan, 319 juft poyabzal ta'mirlangan. Muqovachilik ustaxonasida 120 ta kitob muqovalangan va tikilgan. Qiz bolalar esa tikuvchilikka jalb qilinib, kiyim-kechak va ayollar liboslarini tikish orqali 233 rubl 56 tiyinlik ish bajargan.

Ikkinchi muhim yo'nalish — nogironlar va qariyalarni ijtimoiy himoya qilish. Aleksandrovska nogironlar va qariyalar uyi 1884-yil 3-dekabrda faoliyat yuritib, asosan Yettisuv kazak qo'shiniga mansub bo'lgan, qarilik, nogironlik yoki boquvchisizlik sababli o'zini ta'minlay olmaydigan shaxslarni boshpana va oziq-ovqat bilan ta'minlagan. Muassasa bepul xizmat ko'rsatgan hamda uning faoliyati turli xayriya va ajratmalar hisobidan moliyalashtirilgan.

Uchinchi yo'nalish ta'lim olayotgan muhtojlarga moddiy yordam ko'rsatishdan iborat bo'lgan. Verniy shahridagi rus o'quv yurtlarida tahsil olayotgan muhtoj o'quvchilarga yordam ko'rsatish jamiyati 1879-yilda tashkil etilgan. 1897-yilda jamiyatning 22 nafar faxriy va 77 nafar haqiqiy a'zosi bo'lgan. Jamiyat mablag'larining asosiy qismi a'zolik badallari, xayriyalar va yig'imlardan shakllangan. 1897-yilda mablag'lar Verniy erkaklar va ayollar gimnaziyalari, shahar bilim yurti va boshqa ta'lim muassasalarida o'qiyotganlarga yordam berish uchun sarflangan.

To'rtinchi yo'nalish tibbiy yordam ko'rsatish bo'lib, bunda bepul ko'z kasalxonasi alohida o'rin egallagan. 1897-yilda mazkur kasalxonaga 1 128 nafar bemor murojaat qilgan va ular tomonidan 11 347 ta tashrif amalga oshirilgan. 1899-yilda esa ambulator bemorlar soni 1 382 nafarga, tashriflar soni 9 370 taga yetgan. Bundan tashqari, Prjevalsk uyezdining Sazanovka qishlog'iga yuborilgan maxsus okulistik guruh 409 nafar bemorni qabul qilgan.

Beshinchi yo'nalish favqulodda vaziyatlar va kambag'al aholiga yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan. Rossiya Qizil Xoch Jamiyatining Yettisuv Mahalliy Boshqarmasi zilziladan zarar ko'rganlarga, kambag'allarga, bemorlarga va ayrim harbiy xizmatchilar oilalariga moddiy yordam ko'rsatgan. 1897-yilda uning xarajatlari orasida nogiron quyi harbiy unvonlarga nafaqalar, bir martalik yordamlar, hamshiralar maoshi va yetim bolalarni saqlash uchun Verniy bolalar uyiga ajratmalar mavjud bo'lgan.

XULOSA

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yettisuv viloyatida faoliyat olib borgan ijtimoiy himoya tashkilotlari hududdagi xayriya, ta'lim, tibbiy yordam va ijtimoiy parvarish tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etgan. Tadqiqot natijalari ushbu tashkilotlar faoliyatini shartli ravishda bolalarni himoya qilish va kasbga tayyorlash, nogironlar va qariyalarni parvarishlash, muhtoj o'quvchilarni moddiy qo'llab-quvvatlash, tibbiy xizmat ko'rsatish hamda favqulodda vaziyatlarda yordam berish kabi asosiy yo'nalishlarga ajratish mumkinligini ko'rsatdi.

Verniy bolalar uyining faoliyati ijtimoiy himoya bilan ta'lim va kasbiy tayyorgarlikning uyg'unlashganini ko'rsatadi. Bolalarning maktab ta'limi bilan bir qatorda etikdo'zlik, muqovachilik, tikuvchilik va duradgorlikka jalb etilishi ularning kelgusidagi mustaqil hayotga tayyorlanishiga xizmat qilgan.

Aleksandrovska nogironlar va qariyalar uyining faoliyati esa muayyan ijtimoiy guruh vakillarini bepul boshpana, oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlash mexanizmi shakllanganini ko'rsatadi. O'quvchilarga yordam berish jamiyati, bepul ko'z kasalxonasi va Qizil Xochning mahalliy boshqarmasi esa ijtimoiy yordamning ta'lim, tibbiyot va moddiy ko'mak kabi yo'nalishlarini kengaytirgan.

Shu bilan birga, maqolada tahlil qilingan manbalar ijtimoiy yordam tizimining universal xarakterga ega bo'lmaganini ko'rsatadi. Ayrim muassasalar yordamni muayyan ijtimoiy yoki korporativ guruhlariga yo'naltirgan, xususan, o'quvchilarga yordam berish jamiyati faoliyatida rus o'quv yurtlari ustuvor o'rin egallagan. Bu holat Yettisuv viloyatidagi xayriya va ijtimoiy himoya tizimini Rossiya imperiyasining o'sha davrdagi ijtimoiy-ma'muriy siyosati bilan bog'liq holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Yettisuv viloyatidagi ijtimoiy himoya tashkilotlari faoliyati Rossiya imperiyasi davrida hududda xayriya va ijtimoiy yordamning tashkiliy shakllari shakllanganini ko'rsatadi. Biroq ushbu tizimning amaliy qamrovi, moliyaviy imkoniyatlari va yordam oluvchilar tarkibi turlicha bo'lgan. Shu sababli Yettisuvdagi xayriya muassasalari faoliyatini o'rganish Turkiston o'lkasida ijtimoiy siyosat, ta'lim, tibbiyot va xayriya institutlarining tarixiy rivojlanishini yanada chuqurroq anglash uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Обзор Семиреченской области за 1897 г.* – Верный, 1898. – С. 58–61.
2. *Обзор Семиреченской области за 1885 г.* – Верный, 1886. – С. 65–66.
3. *Обзор Семиреченской области за 1887 г.* – Верный, 1888. – С. 61.
4. *Обзор Семиреченской области за 1889 г.* – Верный, 1900. – С. 74.
5. *Обзор Семиреченской области за 1900 г.* – Верный, 1901. – С. 51–52.